

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.O.Baltabayeva, O.A.Komiljonova

Franshizalarni ochish va ular bilan samarali ishlash - biznesni rivojlantirishning omili sifatida 6

A.Y.Toyirov S.R.Shodiyev

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoatining o'ri 9

A.Y.Toyirov

Hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda infratuzulmaning o'ri 16

FALSAFA

A.A.Qambarov

Abdulla Avloniy o'zbek millatining ma'rifatparvar ziyolisi..... 21

G.T.Kabulniyazova

Uyg'onish davri falsafasining mashhur vakili Nikolay Kuzanskiyning panteistik ontologiyasi 27

X.N.Xolmirzaev

Sun'iy intellekt tizimlarida ijtimoiy me'yorlar va inson qadriyatlarining ahamiyati..... 32

S.S.Evatov

O'rta asr sharq faylasuflari ta'limotlaridagi gnoseologik va teologik qarashlarning qiyosiy tahlili 37

I.A.Asatulloev

Erk fromm ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida inson tabiati deformatsiyasi..... 40

B.X.Tolipov

Yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom axloqiy-iqtisodiy raqobat asosida rivojlantirishning falsafiy jihatlarini 46

Sh.Q.Oxunova

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishning sinergetik strategiyasi 50

M.K.Soipova

Fazl Ibn A'zamning ontologik qarashlari..... 54

L.K.Axatov

Irfoniy qarashlarning falsafiy mazmun-mohiyati (mutafakkirlar asarlarining tahlili asosida) 59

J.A.Mamanov

Yoshlarda ma'naviy madaniyatni yuksaltirishning milliy va umuminsoniy tamoyillari 63

I.I.Umrzakov

Xalq musiqa ijodiga doir falsafiy-madaniy yondashuvlar..... 70

Sh.A.Ismailov

Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy himoya va ijtimoiy siyosat yuritishning asosiy omillari 74

R.S.Raupova

Abu Ali Ibn Sinoning ma'naviy-axloqiy qarashlarining mamlakatimiz rivojida tutgan o'ri 78

M.A.Rahmonova

Abdurauf Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlarini yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'ri 84

D.V.Vohidova, O.L.Berdiyev

Turkiy tasavvufning buyuk namoyandasi..... 92

B.B.Dehqonov

Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini qurishda Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik g'oyalarining o'ri va ahamiyati 96

A.Z.Sharipov

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi-yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma'naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar asosi sifatida..... 102

L.B.Ikromova

Zamonaviy o'zbek falsafasida gnoseologik muammolarning yoritilishi..... 107

A.X.Amonlayev, M.Y.Sultonov

Islom qadriyatlarida shaxs ma'naviyati haqidagi qarashlarning gumanistik mohiyati 111



UO'K: 101.1

FAZL IBN AXMADNING ONTOLJGIK QARASHLARI

ОНТОЛОГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ФАЗЛА ИБН АХМАДА

ONTOLOGICAL VIEWS OF FAZL IBN AHMAD

Soipova Mavjuda Karimjanovna 

Farg'ona davlat universiteti dotsenti falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Fazl ibn Ahmadning Iddatul uqul va umdatul ma'qul (Aqlarning va'da berishi va aqllarga ma'qul narsalarning asosi) asarida borliq falsafasi tahlili xaqida ma'lumotlar berilgan. Borliq - olam va har qanday turdagi mavjudlikni ifodalaydigan falsafiy kategoriya. Faylasuflar borliq haqida turli g'oyalarni ilgari surishgan. Tasavvufda bu tushuncha vahdati vujud, vahdati shuhud va vahdati mavjud nazariyasi sifatida yoritilgan. Iddatul uqul va umdatul ma'qul (Aqlarning va'da berishi va aqllarga ma'qul narsalarning asosi) asarida inson va borliq falsafasi haqida fikrlar keltirilgan. Yangi O'zbekistonni barpo etishda Rumi ta'limoti, ayniqsa, Fazl ibn Ahmad g'oyalari bilan bugungi murakkab zamonda yoshlarni ruhiy barkamol insonlar etib tarbiyalash, ma'naviy jihatdan yuksaltirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Аннотация

В статье дается информация об анализе философии существования в произведении Фазла ибн Ахмада «Иддагуль укул ва умдагуль абдул» («Обещание разума и основа вещей, желательных для разума»). Бытие - философская категория, представляющая вселенную и все виды существования. Философы выдвигали различные идеи о существовании. В суфизме эта концепция объясняется как теория единства существования, единства свидетельства и единства бытия. В произведении «Иддагуль укул ва умдагуль абдул» («Обещание разума и основа желаемых разумом вещей») содержатся мысли о человеке и философии бытия. В построении нового Узбекистана важной задачей в сегодняшнее непростое время остается воспитание молодежи как духовно зрелых людей и ее духовное возвышение, основанное на учении Руми, особенно на идеях Фазла ибн Ахмада.

Abstract

This article provides information on the analysis of the philosophy of existence in the work of Fazl ibn Ahmad Iddatul uqul va umdatul abdul (The Promise of Reasons and the Basis of Things That Are Agreeable to Reasons). Existence is a philosophical category that represents the world and all kinds of existence. Philosophers have put forward various ideas about existence. In Sufism, this concept is explained as the theory of unity of existence, unity of witnessing, and unity of being. The work of Iddatul uqul va umdatul abdul (The Promise of Reasons and the Basis of Things That Are Agreeable to Reasons) presents ideas about man and the philosophy of existence. In the construction of a new Uzbekistan, the teachings of Rumi, especially the ideas of Fazl ibn Ahmad, in today's difficult times, raising young people as spiritually mature people and spiritually elevating them remains an important task.

Kalit so'zlar: borliq, ijtimoiy ilm taraqqiyot, insondialektik, sinergetik, deterministik, ma'naviy milliy va umuminsoniy manfaatlar, progressiv taraqqiyot, axloqiy qadriyatlar, estetik, siyosiy, huquqiy, demokratik.

Ключевые слова: бытие, развитие социальных наук, человеческая диалектика, синергетика, детерминистика, духовность, национальные и общечеловеческие интересы, прогрессивное развитие, моральные ценности, эстетика, политика, право, демократия.

Key words: existence, social science development, human dialectical, synergetic, deterministic, spiritual national and universal interests, progressive development, moral values, aesthetic, political, legal, democratic.

KIRISH

Borliqning mohiyatini, xususan uning cheksizligi va inson hayotining unga bog'liqligini o'rganish bugungi kunda ham falsafaning asl mazmun-mohiyatini ifodalovchi sifatlarini namoyon etadi Borliq falsafaning asosiy kategoriyasidir. Borliq - olam va har qanday turdagi mavjudlikni ifodalaydigan falsafiy kategoriya. Faylasuflar borliq haqida turli g'oyalarni ilgari surishgan. Tasavvufda bu tushuncha vahdati vujud, vahdati shuhud va vahdati mavjud nazariyasi sifatida yoritilgan. Mazkur nazariya ham falsafiy, ham irfoniy asoslarga tayanadi.

Bu muammolar bugun ham barcha avlod faylasuflarini qiziqtiradi. Zero, hozirgi borliq masalasi ko'p jihatdan muammoli bo'lib qoldi, ya'ni dunyoda ekologik tanglik tobora kuchayib bormoqda, zamonaviy fan-texnika taraqqiyotining salbiy ta'siri yaqqolroq sezilmoqda, yadro urushi

FALSAFA

xavfining dahshatli qiyofasi yorqin ko'rinish kasb etmoqda. Borliqning bunday muammoliligi nafaqat uni tabiiy jarayon sifatida, balki insonning butun hayot yo'li davomida anglab etiladi. U doimo konkret ko'rinishda, ya'ni muayyan tarzda namoyon bo'ladi, ko'plab alohida voqealarga bo'linadi, mavjudlikning butun keskinligini namoyon etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tasavvuf, bir tomondan, din va shariat, ikkinchi tomondan, falsafa va hikmat ilmi bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan o'ziga xos ta'limotdir. Ammo shunisi borki, so'fiylar o'zlarini har doim faylasuflarga va kalom ahli (shariat ahli ulamolari)ga qarama-qarshi qo'yib kelganlar. Nega? Chunki kalom ahli qur'on oyatlari, Payg'ambar hadislarini zohiran o'rganish, olam yaratilishi va tuzilishini aynan diniy tasavvurlar bilan tushuntirishdan nariga o'tmas, islomni ham, iymonni ham aql bilan qabul qilish va ahkomlarning rasm-rusumlari, odatlarni mustahkam saqlash uchun kurashganlar. Shu bois so'fiylar ahli kalomni "muqallidlar", ya'ni o'tganlarga taqlid qiluvchilar deb ataganlar. Faylasuflar (chunonchi, Forobiy, Ibn Sino, Al-Kindiy, Ibn Rushd kabi) esa yunon donishmandlari Aflotun, Arastu va boshqalarning tajriba va kuzatuv, mantiqiy tahlil va umumlashmalar orqali tabiat, inson va jamiyatni tadqiq etish yo'lidan borganlar. Ko'rinadiki, ahli kalomda ham, ahli hikmatda ham aqliy-mantiqiy ilm, tajriba qilish, bilim yig'ish etakchilik qiladi.

Fazl ibn Ahmad "Iddatul uqul va umdatul ma'qul" (Aqllarning va'da berishi va aqllarga ma'qul narsalarning asosi) risolasida Yaratuvchining vahdoniyatini (yakkaligi), borligini, maxluqlarning sifatleri va alomatlaridan pokligini tahlil qilib, o'nta hujjat keltiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bu mavzuda ishonchli sodiq o'nta hujjat keltirdim. Ulardan avvalgisi vujud al-mutlaq (umumiy mavjudlar)dir. Chunki vujud: vojib, koin (imkoniyatli) va imkonsizga bo'linadi. Olamning vujudini vojibligi uning hodisligini isbotlash o'rnida keladi. Bu olam - azaliy va mavjudligi vojib (shart) bo'lgan zotga muhtoj bo'ladi. Bu Zot olamning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Agar vojib al-vujud (mavjudligi shart) bo'lgan zot unga sabab bo'lmasa, olamning mavjudligi ma'dum (yo'q)ligidan yaxshiroq bo'lmaydi.

Faylasuflar borliq haqida turli g'oyalarni ilgari surishgan. Tasavvufda borliq, vujud tushunchasi sifatida keladi va uni izohlashda vahdati vujud, vahdati shuhud va vahdati mavjud nazariyasi sifatida yoritilgan. Mazkur nazariyalar ham falsafiy, ham irfoniy asoslarga tayanadi.

Vahdat ul – vujud (borliqning bir butunligi) - abadiy yagona Allohgina bor, moddiy olam esa ro'yo deb hisoblovchi ta'limot. Bu ta'limotga ko'ra, moddiy olam va narsalar dunyosi haqiqiy emas, haqiqat faqat Allohda mujassamlangan, moddiy olam Allohning tajalliysidir, shu'lasidir. Ushbu ta'limot tasavvufdagi eng munozarali mavzulardandir.

Vahdat ul-shuhud, ya'ni ideal (Alloh) bu olamda o'zining belgisi (shuhud)ni namoyon qiladi. Borliqni ana shu belgilar asosida inson vujudida Uning mukammallik belgisi borligi bilinadi. Inson vujudini o'rganish bilan Borliq (Vahdat) tasavvur qilinadi. Bunday qarash Abu Bakr Kolobodiy, Yusuf Xos Hojib, Aziziddin Nasafiy asarlarida aks etgan.

Vaxdatul-mavjud moddiy olam Xudo vujudida mavjud, biroq Xudo olamga singib ketgan emas (paneteizm) degan g'oyani ilgari suradi. Unga ko'ra, Xudo koinot qamrab olgan barcha narsalarda (ajzo) mavjud, shu bilan birga ulardan tashqari mavjuddir. Xudo koinotni qamrab olgan, ammo koinot Xudoni qamrab ola olmaydi. A'zo egasi a'zoni angalay olgani holda, a'zo o'z egasini angalay olmagani kabi Xudo koinotni anglaydi, ammo koinot uni angalay olmaydi.

Vahdat ul - vujud nazariyasining ko'proq qadimgi Yunonistonda Aflotun (m.a.427-347yy), Flutin (m.a.270-204yy) qarashlari bilan umumiyligi bor. Aflotun (Platon) butun dunyo haqiqiy borliqning, ya'ni "g'oyalar dunyosining" mahsuli, soyasidir, deb ta'limot bersa, Flutin (Plotin) haqiqatni bitta va birlikni butun borliqning asli va asosiy manbai deb tushunadi. Uningcha, barcha mavjudot o'sha birinchi mabda (boshlang'ich joy, nuqta) dan sizib chiqib, nihoyatda unga qaytib boradi.

Ikkinchi hujjat – olam javhari majmu'sida yagona narsaga yonma-yon bo'lgan ko'p narsalarning mavjudligi, bu ko'p narsalarning birini ikkinchisiga sabab qilish imkonsiz bo'ladi. Biz bu ikkisi - ko'payishdan pok bo'lgan azaliy Zotga muhtoj bo'lishini quyida bayon qilamiz.

G'azzoliy fikricha, xudoga nisbatan "Nur" atamasini qo'llash haqiqiy voqelikni ifodalaydi, negaki, nurli ashyolar majoziydirlar. Biz ko'z va aqlni shuning uchun nur deb ataymizki, ular ashyolarni aniq bir-biridan ajratib, idrok etishimizga imkon beradilar. Shunga binoan aqlni birinchi o'rinda nur, deb atasak bo'ladi. Zero, u ashyolarni aniqlashdan tashqari o'zini nima ekanligini ham

ma'lum qiladi hamda makon va zamonning sharoitiga ham tobe bo'lmaydi. Natijada, hamma narsadan ko'ra, xudoga o'xshab qoladi (shu tartibda ehtimol birinchi aytilgan so'zning sirini topish mumkin bo'lar), ya'ni xudo tabiatan Odamni o'zining suratiga o'xshab yaratgan. Guvohlik berish mumkin bo'lgan olam yoki sufli olam, ya'ni jismoniy va zulmatli dunyo olami malakut yoki alaviy olam qarshisida ruhiy va nurli dunyo bo'lib, u haqda Qur'on va boshqa osmoniy kitoblar hikoya qiladilarki, mazkur dunyo mag'z atrofidagi po'choq yoki peykar qarshisidagi soyaga o'xshaydi.

Uchinchi hujjat – umumiy olam mavjudotlarini tarkib topishi va tuzilishidir. Chunki bu ikkisi ham azaliy va abadiy bo'lgan bu sifatlardan xoli bir Yaratuvchi va oliy Zotga muhtoj bo'ladi.

Abu Nasr Forobiy ilk marotiba “vujud”, “vujudi vojib” (vojib ul-vujud) va “vujudi mumkin” (yaratilgan vujud) kabi keyinchalik Vahdat ul-vujud falsafasida keng qo'llanilgan atamalarni falsafiy kategoriyalar darajasiga ko'tardi. Mutafakkirning Vahdat ul-vujud falsafasining shakllanishiga qo'shgan hissasini quyidagi uch holatda qayd etish mumkin:

- Forobiy nafaqat “Vujud” (borliq) falsafasi tarafdori, balki bu maktabning asoschisi ham edi. Zero uning asarlarida “Vojib” (zaruriyat, zarurlik), “Mumkin” (yaratilgan) o'rtasidagi farqlarni aniqlash, shuningdek, Vujud (Borliq)ning vojibligiga oid masalalar ilk marotiba o'rtaga tashlanadi.

- Forobiy falsafaga ilk marotiba “Vojib ul-vujud” – mavjudligi zaruriyat bo'lgan, o'zidan bor bo'lgan vujud – Alloh ta'olo va “Mumkin ul-vujud” – yaratilgan mavjudotlar, mavjudligi o'zidan bo'lmagan vujudlar kabi tushunchalarni olib kiradi.

“Vujud” haqidagi bahslar ahli sunna val jamoa e'tiqodiga ergashuvchi ash'ariy mutakallimlardan boshlanadi. Ular “Vujud” bilan bog'liq tushunchalarni quyidagicha izohlaganlar:

1. Vojib ul-vujud – Alloh taolo mavjudligining zarurligi.

2. Mumkin ul-vujud – “Mumkin” sanalgan vujudlarni Alloh yaratmasa ham bo'lardi, ammo yaratdi.

3. Mumtane' ul-vujud – mavjud bo'lishi mumkin bo'lmagan vujud. YA'ni, Allohning sherigi mavjud bo'lishi mumkin emas.

To'rtinchi hujjat – butun olam jismlarini o'z ichiga olgan harakatdir. Chunki jismning harakatlanuvchi va harakatlantiruvchi bo'lishi imkonsizdir, xuddi uning ham bajaruvchi va qabul qiluvchi bo'lishi imkonsiz bo'lganidek. Biz tabiatshunoslar aytganidek – “jism abadiy tabiiy quvvat bilan harakatlanadi” degan fikrni amri maholligini bayon qilib beramiz. Shunday ekan, jism - quvvatining nihoyasi bo'lmagan bir harakatlantiruvchiga muhtoj bo'ladi.

Vahdatul vujud ta'limotining ikkinchi qismi – tajalliy nazariyasiga ko'ra, butun olam Zoti azaliy nurining porlashidan mavjudlik topadi. harakat va bog'lanishlar, vobastaliklar, hayot jilolari shundan. Inson buni idrok etsa o'z Rabbini tezroq taniydi. Demak, yana inson bilan bog'liq qilib tushuntiriladi. Olamdagi har qanday jarayon harakat tufayli sodir bo'ladi. Har qanday o'zgarish – harakatdir. O'zgarishlar na faqat moddiy obyektlarga, balki ma'naviy, g'oyaviy obyektlarga ham xosdir. Har qanday (moddiy va g'oyaviy) obyektning mavjudligi undagi harakat va o'zgarishlar tufayli namoyon bo'ladi. Shu sababli harakat borliqning asosiy mavjudlik usulidir

Beshinchi hujjat – butun olamning jismlarini tutib turuvchi fasllardir. Olam jismlarining ba'zi zotlari ba'zilaridan ajraladi. Chunki fasl jinsning mohiyati va haqiqatiga kirmaydi. Har bir narsani ma'lum vaqtdagi holati uning mohiyatiga kirmaydi. Buni bayoni keyinroq keladi.

Sababiy bog'lanishlarning bunday real va umumiy jihatini inkor etish, oqibatning sababini narsa, hodisalarning o'zidan emas, balki tashqaridan izlash asosida kelib chiqadi. Sabab va oqibat bog'lanishining teleologik ta'limotiga ko'ra, olam oqibatlarida Xudodan bo'lak sabab yo'q, har qanday o'zgarish va harakat Yaratuvchining amri bilan sodir bo'ladi. Bunda sababiyat emas, balki maqsadga muvofiqlik mavjud bo'lib, narsa, hodisalarning tartibi azal irodasi bilan belgilanadi.

Nisbiylik nazariyasidan jismlarning harakat tezligi oshganida va u yorug'lik tezligiga yaqinlashganida massa ortishi va harakatsizlik holatlariga nisbatan vaqt jarayonlari sekinlashishi ma'lum. Vaqt ritmlarining pasayishi juda kuchli gravitatsiya maydonlari ta'sirida ham yuz beradi. Tirik organizmlarda turli funksional tizimlarning kun va tun, yil fasllari, quyosh faolligi sikllarining almashuviga bog'liq bo'lgan bioritmlari ham amal qiladi.

Oltinchi hujjat — barcha jismlar zotini to'ldiruvchi araz (rang, soya va harakatga o'xshash)lardir. Fasl bilan araz o'rtasidagi farq olovning issiqligi, suvning namligi, qarg'aning qoraligi va kiyimning oq rangidan ma'lum bo'ladi. Ularning birinchisi jismlar uchun zaruriy bo'lib, ikkinchisi esa to'ldiruvchi hisoblanadi. Jism ulardan butunlay mahrum bo'la olmaydi va o'zini o'zi to'ldira olmaydi. Shuning uchun unga fasllar va arazlar orqali shakllangan bir maxsuslik zarur bo'ladi. Yaratuvchi esa jins, fasl, araz kabi sifatlari ostiga kirishdan pokdir.

FALSAFA

Tadqiqotchi E.Zoyirov naqishbandiya tariqati namoyondasi Maxdumi A'zamning borliqning umumiy masalalarini yoritgan, bu kategoriyani yaxlit, tizimli o'rgangan va shu masalaga oid qarashlarini eng mukammal tasvirlagan "Risola - e vujudiya" ("Vujud haqida risola") asari haqida quyidagi ma'lumotni keltirib o'tadi.

1. Haqiqiy, boqiy, sarmadiy vujud. Sarmadiy – doimiy, abadiy ma'nosini anglatadi. Haqiqiy, boqiy, abadiy, doimiy vujud Haq subhana va taolo vujudidir.

2. Oraziy, majoziy, foniyy vujud. Oraz - arab so'zi bo'lib, ko'rinish, namoyon bo'lish ma'nolarini anglatadi. Falsafada aksidensiya ma'nosini anglatadi. Majoziy – haqiqatning aksi. Foniyy - o'tkinchi deganidir. Oraziy, majoziy, foniyy vujud - ko'rinadigan, yuzada bor, lekin haqiqiy bo'lmagan, o'tkinchi vujud deganidir. Bunday vujud xalq qilingan maxluqotlar vujudidir. Har bir yaratilgan, xalq qilinganning o'z haqiqati bor.

Yettinchi hujjat — butun olamdagi tartib, tizim va hukmlardan iboratdir. Chunki jismni bir shakl va ko'rinishga keltiruvchi, jism o'z zotida muhtoj bo'lgan barcha xususiyatlarni beruvchi dono va hikmatli Yaratuvchi bo'lmasa, bu imkonsizdir. Bu olam jismlarida, oddiy va murakkab narsalarda ham yaqqol ko'rinib turibdi.

Fazoni tashkil etgan nuqtalar muayyan tartibda joylashgan bo'lib, ularning har biri o'zining qat'iy o'rniga ega. Ularning tartibi o'zgarmasdan saqlanadi. Masalan, har qanday jismning tanasi va ichki a'zolarini tashkil etgan fazoviy nuqtalar shunday tartibda joylashganki, har bir nuqta o'zining qat'iy o'rniga ega, bu tartib buzilsa, bu jism parchalanib ketishi, yoki ichi bilan tashqarisining farqi qolmaydi. Bunday holda sistemaning mo'ljallanganligi ham o'zgarib qolishi mumkin. Aslida jismning ichi bilan tashqarisi hech qachon bir – biri bilan almashinib qolmaydi. Bu esa narsalarda fazoviy tartiblanganlikning saqlanishdan dalolat beradi. Vaqtning tartiblanganligi shundaki, vaqtda ketma – ket ro'y bergan xodisalar o'z tartiblanganligini izchil ravishda saqlaydi. Voqelikda shu choqqacha hech kim, hech qachon biror bolaning o'z otasidan ilgari tug'ilganligini kuzatgan emas. Yoki, bolaning otasi buvasiga ota bo'lishi mumkin emas. Agar vaqtning tartiblanganligi buzilsa olamdagi jarayonlar ketma – ketligi tartibi mutlaqo buzilib ketar edi.

Sakkizinchi hujjat — hayot, o'sish, paydo bo'lish, nasl qoldirish barcha hayvonlaru o'simliklarda joriy bo'lishi haqidadir. Chunki ulardan har bir mavjudot shunday nozik va ajoyib yaratilgan-ki, uning ajabtovur tuzilishi aql egalari uchun hayratomuzdir. Biz tabiatning bunday ajoyib narsalarni o'z-o'zidan yaratishi mumkin emasligini isbotlaymiz. Chunki dahriylarlar: bu ishlarni faqat bitmas, tugamas tabiat kuchi bajaradi, deydilar. Lekin bu oxir-oqibat vojib al-vujud (mavjudligi zaruriy) azaliy mavjud bo'lgan, ilmi va hikmati yaratgan narsalarida namoyon bo'ladigan bir Yaratuvchiga muhtoj bo'ladi.

Tadqiqotchi A.Boltayev Ibn Arabiyning "Kitabut tadbiratil ilahiyya fi islohil mamlakatil insoniyya" ("Inson mamlakatini isloh qilishdagi ilohiy tadbirlar") risolasida inson borlig'ini falsafiy-irfoniyy tahlil qilgan. "Nazar sol, Alloh sening ko'zlarini nurlantirsinki, bu ko'zlar bilan olami akbardagi narsalarning hammasi mulk va malakutdan iborat bo'lgan inson olamida borligini ko'rasan. Bu olamda u narsalar o'sish orqali namoyon bo'ladi. Insonda buni soch, tirnoq va shu kabilarning o'sishida ko'rasan. Katta olamda sho'r suv, shirin suv, achchiq va talx bo'lgani kabi inson olamida ham ular bor. Sho'r suv ko'zlarida, talx burnida, achchiq quloqlarida, shirin og'zida bo'ladi. Shuningdek, olami akbarda tuproq, suv, havo va olov bo'lganidek, inson olamida ham bu narsalar uning jismida xalq qilingan". Bu xulosalariga Qur'ondan ko'plab oyatlarni asos qilib keltiradi. Inson hayoti o'tkinchi va cheklangandir. Uning hayoti tug'ilish va o'lim oraliqida kechadi. Shu boisdan moddiy va ma'naviy borliqqa xos bo'lgan abadiylik tushunchasini insonga nisbatan qo'llab bo'lmaydi. Koinot mezonlari inson borlig'ini o'lchashga yaramaydi. Inson borlig'i makonda cheklangandir. Inson uchun tabiiy va ijtimoiy hayot sharoitlari muhim tuyulsada, uning konkret mehnat sharoiti, turmush tarzi, individualligi, kayfiyat va kechinmalari undan ham muhimroqdir.

To'qqizinchi hujjat — dunyodagi barcha mavjudotlar tabiatida hukmron bo'lgan o'zgarish va almashinuv haqida. Shunday qilib, ular orasidagi biror narsa bir lahza ham o'zgarmasdan turmaydi. Hissiy narsalar haqiqatlarini o'rganayotgan tajribali kuzatuvchi, har bir narsa soat sayin o'z holatidan boshqa bir holatga o'tishini va o'zgarishini ko'radi — ba'zida oldingi holatga qarama-qarshi, ba'zida esa undan farqli ravishda o'zgaradi. Ushbu o'zgarish hukmi hamma narsada davom etadi. Shuningdek, vaqt tomonidan o'zgartiriladigan narsalarning abadiyligi imkonsizdir. O'zgarishning ma'nosi — bir holatda turmasdan boshqa holatning paydo bo'lishidir; birinchi holatni doimiy mavjud deb tasavvur qilish mumkin emas. Shuning uchun barcha narsani o'zgartiruvchi, ammo o'zi

o'zgarmas va barcha narsani almashtiruvchi, ammo o'zi almashmaydigan abadiy Zotga muhtoj bo'ladi. Har qanday o'zgarishni harakat deb hisoblasak, u ma'lum bir makon va zamonda yuz beradi. Arab faylasufi Al-Kindi harakatni olti turga bo'ladi:

- 1) paydo bo'lish;
- 2) yo'q bo'lish;
- 3) uzayish;
- 4) qisqarish;
- 5) o'zgarish va nihoyat;
- 6) siljish.

XULOSA

Demak, borliqning mavjudligiundagi o'zgarishlar bilan belgilanadi. Agar o'zgarish bo'lmasa, borliqning bor yoki yo'qligi noma'lumligicha qolar edi. Har qanday o'zgarishni harakatdagi obyektning namoyon bo'lishi deb tushunsa bo'ladi. O'zgarishlarning na faqat moddiy obyektlarga, balki ma'naviy, g'oyaviy obyektlarga ham xos ekanligini ta'kidlagan edik. Shunday qilib, har qanday (moddiy yoki g'oyaviy) obyektning mavjudligi undagi harakat va o'zgarishlar tufayli namoyon bo'ladi. Bu esa harakat borliqning asosiy mavjudlik usulidir degan xulosaga kelishimizga asosdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – B. 9.
2. Mirziyoyev Sh. Jismoniy va ma'naviy etuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir // "Xalq so'zi" 2017 yil 1 iyul.
3. Komilov N. Tasavvuf. II kitob. Tavhid asrori. – T.: O'zbekiston – G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1999 yil – B. 76.
4. Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniy. Tasavvuf va inson. -T.: Adolat. 2001. – 20 b.
5. Zoyirov E. Xojagiy Ahmad Kosoniy. Risola - e vujudiya. Qo'lyozma. Muallifning shaxsiy kutubxonasidan
6. Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi.-T.: Sharq. 2003. – 46 - 132 b.
7. Xolmo'minov J. Tasavvuf ontologiyasi. – T.: Yosh avlod matbaa. – B. 38